

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati
xodimlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa
me'yoriy-huquqiy hujjatlarini o'rganish soatlari to'g'risida ma'lumot**

Tadbirda ma'ruzachi tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 iyuldagi "Qurol to'g'risida"gi O'RQ-550-son Qonuni haqida tushuntirish berdi. Qonun 6 bob, 46 moddadan iborat bo'lib, unda umumiy qoidalar, qurolning tasnifi, qurol va uning o'q-dorilar muomilasi, chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditsiya qilingan diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari va ularga tenglashitirilgan tashkilotlar, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar quroli hamda uning o'q-dorilari muomilasining o'ziga xos xususiyatlari, fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari muomilasi sohasida litsenziyalar va ruxsatnomalar berish va yakunlovchi qoidalardan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadi qurol va uning o'q-dori muomilasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi hamda fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, mulkini himoya qilishga qaratilgan hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, Qonunda ba'zi bir tushunchalarga ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, gazli qurol, kalta stvolli qurol, pnevmatik qurol, signal beruvchi qurol, sovuq qurol, uloqtirish quroli, o'q-dorilar, o'qotar qurol, o'qotar qurolning asosiy qismlari, qurol, qurol muomilasi, qurol egasi kabi tushunchalar.

Qonunga ko'ra qurol mo'ljallanilgan maqsadi hamda asosiy parametrlari va tavsiflariga ko'ra fuqaroviy qurol, xizmat quroli va jangovar qurol turlariga bo'linadi.

Shuningdek, yig'ilgan ishtirokchilar tomonidan o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha ma'ruzachiga savollar berishdi hamda belgilangan muddatlarda o'tkazildi.